UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARIGA IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANIDA “ISTE’MOLCHILARNING DAROMADLARI VA XARAJAT TURLARI” MAVZUSINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Babaeva Nargiza Muzafarovna,
Qo‘qon davlat universiteti prof.v.b.,i.f.d.(DSc)
E-mail: nbabaeba39@gmail.com
Tel: +99891-323-04-77
https://doi.org/10.5281/zenodo.17828704

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iste’molchilarning daromadlari va xarajat turlari iqtisodiy tushunchasi zamonaviy ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan bo‘lib, mazkur mavzuni umumta’lim maktablarida o‘qitishning metodik va pedagogik asoslari keng yoritiladi. Tadqiqotda daromad va xarajatlarning klassifikatsiyasi, iste’molchi xatti-harakatining iqtisodiy mohiyati hamda ushbu jarayonni o‘rgatishda qo‘llaniladigan zamonaviy didaktik yondashuvlar tizimli o‘rganilgan. Mavzuni o‘qitishda raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi va keysli o‘qitishning samaradorligi ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Maqolaning metodologiyasi nazariy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va pedagogik diagnostika elementlariga tayangan. Tadqiqot natijalari mavzuni o‘qitishda innovatsion vositalardan foydalanish o‘quvchilarda iqtisodiy tafakkur, moliyaviy savodxonlik va ratsional qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Maqola yakunida iqtisodiy bilim asoslarining mazkur bo‘limini samarali o‘qitishga doir amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *iste’molchi, daromad turlari, xarajatlar klassifikatsiyasi, iqtisodiy xulq-atvor, moliyaviy savodxonlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, STEAM yondashuvi, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, o‘quv jarayoni samaradorligi.*

Научно-методические основы преподавания темы “доходы и виды расходов потребителей” на основе современных технологий в курсе “основы экономических знаний” для учащихся общеобразовательных школ

Аннотация: *В данной статье на основе современных научных источников проанализированы экономические понятия доходов и видов расходов потребителей, а также подробно раскрыты методические и педагогические основы преподавания данной темы в общеобразовательных школах. В исследовании системно изучены классификация доходов и расходов, экономическая сущность потребительского поведения, а также современные дидактические подходы, применяемые при обучении этому процессу. Научные источники обосновывают эффективность использования цифровых технологий, интерактивных методов, STEAM-подхода и кейс-обучения при преподавании темы. Методология статьи опирается на теоретический анализ, сравнение, системный подход и элементы педагогической диагностики. Результаты исследования показывают, что применение инновационных средств в процессе преподавания способствует формированию у учащихся*

экономического мышления, финансовой грамотности и компетенций рационального принятия решений. В заключение статьи представлены практические рекомендации по эффективному преподаванию данного раздела основ экономических знаний.

Ключевые слова: *потребитель, виды доходов, классификация расходов, экономическое поведение, финансовая грамотность, современные педагогические технологии, STEAM-подход, интерактивные методы, цифровое обучение, эффективность образовательного процесса.*

Scientific and methodological foundations of teaching the topic "consumers' incomes and types of expenditures" through modern technologies in the subject of fundamentals of economic knowledge for general secondary school students

Abstract: *This article examines the economic concepts of consumers incomes and types of expenditures based on contemporary scientific sources and analyzes the methodological and pedagogical foundations for teaching this topic in general secondary education. The study explores the classification of incomes and expenditures, the economic essence of consumer behavior, and modern didactic approaches applied in teaching these concepts. It provides a comprehensive justification for the effectiveness of digital technologies, interactive teaching methods, STEAM-based learning, and case-study approaches when teaching the topic. The methodological framework of the article relies on theoretical analysis, comparative methods, systemic approach, and elements of pedagogical diagnostics. The findings indicate that integrating innovative tools in the teaching process significantly contributes to developing students' economic thinking, financial literacy, and rational decision-making competencies. The article concludes with practical recommendations for enhancing the teaching of this section of economic education.*

Keywords: *consumer, income types, expenditure classification, economic behavior, financial literacy, modern pedagogical technologies, STEAM approach, interactive methods, digital learning, teaching effectiveness.*

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi, eng avvalo, aholining iqtisodiy madaniyati va moliyaviy savodxonlik darajasiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillarda olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ham aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, uy xo'jaliklari darajasida tejamkorlik madaniyatini shakllantirish, yosh avlodni iqtisodiy jarayonlarni anglay oladigan, ongli iste'mol qarorlarini qabul qila oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, "2022–2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ta'lim sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor berilgan. [1] Shu nuqtai nazaridan, barcha umumta'lim fanlari qatorida iqtisodiy bilimlarni maktabdan boshlab chuqur o'qitish, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini amaliy shaklda singdirish, oila byudjeti madaniyatini rivojlantirish, yoshlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, ushbu fan dasturiga muvofiq o'qitiladigan "Iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari" mavzusi o'quvchilarga iqtisodiy hayotning elementar, ammo eng muhim tushunchalarini o'rgatadi. Aynan iste'molchi daromadining shakllanishi, xarajatlarning tasnifi, ratsional iste'mol tamoyillari hamda moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonining mohiyati yoshlarning iqtisodiy tafakkurining shakllanishida boshlang'ich poydevor vazifasini bajaradi. Uy xo'jaligi darajasida to'g'ri rejalashtirilgan byudjet iqtisodiy barqarorlik-

ning eng quyi bo‘g‘ini sanaladi va jamiyatning umumiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur mavzu nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki kundalik hayotiy kompetensiya sifatida ham o‘qitilishi zarur bo‘lgan yo‘nalishdir.

O‘quvchilarda iste’mol jarayonini, daromadlar manbalarini va xarajatlar tarkibini anglash malakasini shakllantirish ularning kelajakdagi iqtisodiy xulq-atvoriga, moliyaviy mas’uliyatiga va turmush darajasining barqarorligiga ta’sir etadigan omildir. Zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy qarorlar – bu faqat xarajat qilish yoki tejash bilan bog‘liq oddiy jarayon emas, balki shaxsning iqtisodiy xavfsizligi, uzoq muddatli rejalashtirish, resurslarni boshqarish va imkoniyatlarni oqilona taqsimlash kabi ko‘plab murakkab mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois mazkur mavzuni o‘qitishda faqat nazariy materialni tushuntirishning o‘zi kifoya qilmaydi; bilimni amalda qo‘llashni rag‘batlantiruvchi, o‘quvchini faol sub’yektga aylantiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodik zaruratga aylandi. Raqamli vositalar, interfaol yondashuvlar va STEAM asosidagi integrativ metodlar o‘quvchilarda iqtisodiy fikrlashni shakllantirishda, mavzuni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashda samarali vosita vazifasini o‘taydi.

Shu bois mazkur mavzuni o‘qitish jarayonida ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan birga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish metodik jihatdan dolzarbdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola quyidagi metodologik yondashuvlar asosida ishlab chiqildi: nazariy tahlil, tizimli yondashuv, taqqoslash metodi, pedagogik tahlil, kontekstual yondashuv.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyot ilmi bo‘yicha klassik tadqiqotlarda daromadning shakllanishi, iste’mol tuzilmasi va xarajatlar dinamikasi muhim nazariy yo‘nalish sifatida o‘rganilgan. Daromad va iste’mol munosabatlarining ilmiy asosi ilk bor Engel tomonidan tadqiq etilib, muallif o‘z asarida turli daromadga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklari xarajat tarkibidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilgan. [2] Ushbu tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiy tahlilda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Iste’molchi xulq-atvori va daromad-iste’mol munosabatlari borasida keyingi davrdagi keng qamrovli ilmiy ishlar, jumladan Samuelson va Nordxausning iqtisodiy modellari, hamda Mankiuning bozordagi iste’molchi qarorlariga oid nazariy yondashuvlari [3] mazkur mavzuni o‘rgatishda metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiy maktabda esa iste’mol jarayonlari, oila byudjeti va daromad turlarining iqtisodiy mohiyati S. Shodmonovning “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida tizimli tasniflangan bo‘lib, u oila daromadining iste’mol strukturasi va farovonlik darajasidagi rolini alohida ko‘rsatib o‘tadi. [4] Shuningdek, Mambetjanov Q.Q., Burxanova Sh.B.lar aholi daromadlari tushunchasi, shakllanish manbalari, yo‘nalishlari, daromadlar tabaqalanishi, tabaqalanishning yuzaga kelish sabablari, daromadlar tengsizligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi hamda uning mezonlari tahlil qilgan. O‘zbekistonda aholi daromadlarining o‘zgarish tendensiyalari va ularga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilgan bo‘lsa, J. Xodjiyev aholining turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganib, statistik tahlil qilgan. Respublikamiz aholi turmush darajasi va uni oshirishga ta’sir qiluvchi omillar ko‘rsatkichlarini baxolab, ilmiy-nazariy tavsiyalar bergan. [5;6]

Xorijiy va milliy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, daromad-xarajat tizimi, iste’mol strukturasi va oila byudjeti masalalari bo‘yicha ilmiy qarashlar mavzuni umumta’lim maktablarida o‘qitishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi va o‘quvchilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

"Iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari" mavzusining dars ishlanmasi

Fan:	Iqtisodiy bilim asoslari
Sinf:	8-sinf
Mavzu:	Iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari
Dars davomiyligi:	45 daqiqa
O'qitish texnologiyalari:	- STEAM yondashuvi - Raqamli texnologiyalar (Google Sheets, Canva infografika, onlayn test) - Interfaol metodlar: "Aqliy hujum", "Klaster", "Keys-stadi", "Tarmoqlar metodi" - Raqamli simulyatsiya (virtual oila byudjeti modeli)
Darsning maqsadlari	**Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarga daromad va xarajatlarning turlari, tasnifi, iste'molchi xatti-harakati mohiyatini tushuntirish. Real hayotiy misolda oila byudjeti tuzish bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qilish. **Tarbiyaviy maqsad:** Tejamkorlik, mas'uliyat, ongli iste'mol madaniyatini shakllantirish. **Rivojlantiruvchi maqsad:** Iqtisodiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, raqamlar bilan ishlash, grafik chizish ko'nikmalarini rivojlantirish.
Kutilayotgan natijalar	**Dars yakunida o'quvchi:** - daromad va xarajatlarning asosiy turlarini farqlay oladi - oila byudjeti qanday tuzilishini amalda ko'rsatadi - Google Sheets yordamida daromad-xarajat jadvali yaratadi - xarajat tuzilmasini grafikda ifodalay oladi - iqtisodiy qarorlar oqibatini tahlil qiladi - ratsional iste'mol prinsiplari asosida xulosa chiqaradi.
Darsning borishi	
1. Tashkiliy qism – 2 daqiqa	Salomlashish, davomatni aniqlash.
2. Motivatsiya – 5 daqiqa	1 daqiqalik video: "Bir oila bir kun ichida nimalarga pul sarflaydi?" (o'qituvchi oldindan tayyorlagan) Savollar (aqliy hujum): - Bu oila daromadlari qayerdan bo'lishi mumkin? - Xarajatlar qaysi turga kiradi? - Agar daromad kamayganida ular nimalarni qisqartirgan bo'lardi? O'quvchilarning javoblari asosida klaster tuziladi: DAROMAD – XARAJAT – JAMG'ARMA
3. Yangi mavzuni tushuntirish – 10 daqiqa	O'qituvchi qisqa taqdimot orqali tushuntiradi: A) Daromadlarning tasnifi - mehnat daromadi - mulkiy daromad - tadbirkorlik daromadi - transfertlar B) Xarajatlarning tasnifi - zaruriy - ixtiyoriy - rejali - investitsion

	C) Ratsional iste’mol tamoyillari - ehtiyoj – istak farqi - cheklangan daromad - ustuvorlik asosida xarajat qilish - jamg‘arma hosil qilish O‘qituvchi taqdimotda **Canva infografika**dan foydalanadi.
4. Amaliy faoliyat (STEAM yondashuvi) – 15 daqiqa	1-bosqich: Guruhga bo‘linish (3 guruh) Har bir guruhga keys-topshiriq beriladi. **Keys 1:** “Oila byudjeti” modeli Har bir guruhga turli daromadga ega 3 xil oila tasviri beriladi. Vazifa: - Google Sheets’da daromad va xarajat jadvalini tuzing - Foiz ulushlarini hisoblang - Xarajat grafikini chizing (STEAMning “Matematika + Texnologiya” integratsiyasi) **Keys 2:** “Daromad kamaydi – nima qilamiz?” Ssenariy: Oila daromadi 20% ga kamaydi. Vazifa: - Qaysi xarajatlar qisqartiriladi? - Qaysi xarajatlar majburiy? Qaysilari ixtiyoriy? - Guruh xulosasi: “Yangi strategiya”. **Keys 3:** “Oila kimga qanchaga tayanadi?” Vazifa: - Daromad manbalari tahlili - Har bir daromad turi qanchalik barqaror? - Qaysi daromad turi xavfli?
5. “Tarmoqlar metodi” orqali umumlashtirish – 5 daqiqa	Doskaga asosiy tushunchalar yoziladi: DAROMAD – XARAJAT – RASIONAL ISTE’MOL – BYUDJET – JAMG‘ARMA O‘quvchilar tushunchalar orasidagi bog‘liqlikni chizadi. Natijada bitta katta mantiqiy xarita hosil bo‘ladi.
6. Raqamli test – 5 daqiqa	(O‘qituvchi telefon orqali QR-kod beradi) Quizizz / Kahoot test (10 ta savol): - daromad turlari - xarajat turlari - ratsional iste’mol - byudjet balansi Natijalar real vaqt rejimida ko‘rinadi.
7. Baholash – 2 daqiqa	Baholash mezonlari: - Guruh ishidagi faollik – 3 ball - Grafik va jadval to‘g‘riligi – 3 ball - Xulosa chiqarish – 2 ball - Onlayn test natijasi – 2 ball Maksimal: **10 ball**
8. Uyga vazifa – 1 daqiqa	**Mini-loyiha:** “Bizning oilamiz byudjeti” (ixtiyoriy ravishda haqiqiy raqamlar o‘rniga o‘quvchi o‘zi modellaydi) Vazifa: - Daromadlar ro‘yxati - Xarajatlar tasnifi - Grafik - Xulosa: “Biz qanday qilib tejamkor bo‘lishimiz mumkin?”

Tahlil va natijalar. Iste'molchining iqtisodiy xatti-harakatini tasvirlashda uning daromadlari va xarajatlari muhim tushunchalardir. Iqtisodiy adabiyotlarda daromadlar turli mezonlarga ko'ra klassifikatsiya qilinadi: mehnat daromadlari, mulkiy daromadlar, tadbirkorlik daromadlari va transfert to'lovlari kabi to'rta yo'nalishda o'rganiladi. Shu bilan birga, xarajatlar ham iqtisodiy tabiatiga ko'ra tasniflanadi: zaruriy turmush xarajatlari, mavsumiy yoki rejali xarajatlar, investitsion xarajatlar va ixtiyoriy iste'mol xarajatlari kabi turlarga ajratiladi. Ayni shu klassifikatsiyalar o'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni tizimli anglashni ta'minlaydi.

Biroq maktab o'quvchisining iqtisodiy tafakkurini shakllantirish uchun faqat nazariy tushunchalarni bilishning o'zi yetarli emas. Asosiy vazifa – uni turmushda uchraydigan daromad va xarajatlar tizimini anglashga, moliyaviy qaror qabul qilishning oqibatlarini baholay olishga o'rgatishdir. Shu sababli dars jarayonida zamonaviy didaktik yondashuvlarni qo'llash ilmiy-metodik zaruratga aylanmoqda.

Bugungi ta'lim jarayonida raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish o'quvchilar faoliyatini faollashtirish, mavzuning mazmunini chuqurroq anglash va olingan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda tatbiq etish imkonini oshiradi. Xususan, raqamli simulyatsiyalar, onlayn hisob-kitob platformalari va interaktiv budjet modellari orqali o'quvchilar turli daromad va xarajat ssenariylarini tahlil qila oladi. Masalan, Google Sheets kabi vositalarda virtual oila budjeti modelini tuzish, xarajat turlarini solishtirish, daromad o'zgarganda iste'mol tarkibidagi o'zgarishlarni grafik aks ettirish imkoni mavjud. Bu bilimlarni "o'zlashtirish" emas, balki "amalda qo'llash" darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarning qo'llanilishi ham mazkur mavzuning samarali o'zlashtirilishida muhim ahamiyatga ega. "Keys-stadi" metodi o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga duch kelgan iste'molchilar roliga kirishga undab, moliyaviy qarorlarni tahlil qilish, muqobil variantlarni solishtirish va maqbul variantni tanlash ko'nikmalarini shakllantiradi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Tarmoqlar metodi" esa daromad va xarajatlarning biznes modelini tushunishga, iqtisodiy kategoriyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar konstruktiv ta'lim nazariyasiga tayanadi, ya'ni bilim o'quvchiga tayyor ko'rinishda emas, balki uning mustaqil fikrlashi va faol ishtiroki asosida shakllanadi. [7]

Bundan tashqari, STEAM yondashuvi ham ushbu mavzu uchun muhim pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Unda iqtisodiy mazmundagi topshiriqlar matematika (foiz hisoblash, taqqoslash), texnologiya (raqamli jadval va grafiklar yaratish), san'at (infografika tuzish) komponentlari bilan uyg'unlashtiriladi. Bu integratsiya o'quvchilarda tizimli fikrlash va analitik ko'nikmalarni rivojlantiradi. Hozirgi kunda xalqaro tadqiqotlar STEAM texnologiyalarining iqtisodiy fanlarni o'qitishda yuqori samara berishiga oid ilmiy dalillarni taqdim etmoqda. [8]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun "Iste'molchilarning daromadlari va xarajat turlari" mavzusini zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitishga oid dars ishlanmasi ishlab chiqildi. (jadval 1)

Zamonaviy metodlar qay darajada o'rinli qo'llanilsa, o'quvchi shunchalik yuqori darajada iqtisodiy ongga ega bo'lib boradi. Iste'molchilarning daromadlari va xarajatlari mavzusida turli pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning amaliy fikrlashini shakllantirish, ularda iqtisodiy qarorlar oqibatini oldindan ko'ra bilish, moliyaviy mas'uliyatni sezish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilar statistik ma’lumotlar bilan ishlash, tasniflash, modellash va prognoz qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bunday faoliyat esa zamonaviy bilimlar doirasida iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Iste’molchilarning daromadlari va xarajat turlari” mavzusi o‘quvchilarning iqtisodiy dunyoqarashi va moliyaviy madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzu bo‘yicha ilmiy manbalarga tayangan holda quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

- Daromad va xarajatlar tizimi iste’molchi xulq-atvorining asosiy omilidir. Shuning uchun mavzuni real misollar asosida o‘qitish samarali hisoblanadi.

- Engel qonuni bo‘yicha daromad oshgan sari iste’mol tuzilmasi o‘zgarishi o‘quvchilarga sodda grafiklar orqali tushuntirilsa, mavzu yanada oson o‘zlashtiriladi.

- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – raqamli dasturlar, onlayn testlar, infografika vositalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

- Mavzuni o‘qitishda STEAM yondashuvi, amaliy mashg‘ulotlar va byudjet tuzish bo‘yicha mini-loyihalar qo‘llansa, natija yanada samarali bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, iste’molchi daromadlari va xarajat turlarini o‘qitish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, xalqaro tadqiqotlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar mazkur mavzuni yangi metodik bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni chuqur tatbiq etish orqali o‘quvchilarda iqtisodiy ong, moliyaviy mas’uliyat va ratsional qaror qabul qilish madaniyati shakllantiriladi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

2. Engel, E. (1857). *Die Productions- und Consumptionsverhältnisse des Königreichs Sachsen*.

3. Samuelson, P., & Nordhaus, W. (2012). *Economics*. McGraw-Hill.

4. Shodmonov, Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi*. Darslik, Toshkent. 2021.

5. Mambetjanov Q.Q., Burxanova Sh.B., O‘zbekistonda aholi daromadlarining o‘zgarish tendensiyalari. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansы 2022, 2(150)

6. Xodjiev J., 2024, Axoli turmush farovonligi va daromadlari tarkibining tahlili

7. Piaget, J. (1970). *Genetic Epistemology*. Columbia University Press.

8. Yakman, G. (2008). *STEAM Education Framework*.

9. Sariqov E.S.. Iqtisodiy bilim asoslari: Umumiy o‘r ta ta’lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik/E.S.Sariqov, B.Q.Xaydarov. – T.: 2019. – 160 b

10. Mankiw, N. G. (2018). *Principles of Economics*. Cengage Learning.